

O‘ZBEK ADABIYOTIDA OT OBRAZI GENEZISI VA TAKOMILI

Abduqodirova Lobar Shavkatovna

Alfraganus universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada animalistik janrning adabiyotga kirib kelishi, dunyo va o‘zbek adabiyotida otning obrazga aylanish genezesi, ramziy-majoziy talqinlari ifodasi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *animalistik janr, jonivorlar obrazidagi ramziylik, ot haqidagi totem, ot obrazi, milliy koloritda otning tutgan o‘rni.*

Kirish.Obraz badiiy adabiyotning markaziy tushunchasi bo‘lib, u asar mazmunini to‘laqonli ochib berishga xizmat qiladi. Badiiy asarda obrazlar bir necha turlarga bo‘linadi: kishilar obrazi, hayvonlar obrazi, tabiat-o‘simlik obrazi, narsa-predmet obrazlari. Ushbu maqolada esa urg‘uni hayvonlar obraziga qaratamiz. Adabiyotning ilk davrlaridan buyon hayvonlar haqidagi asarlar badiiy jarayonning ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Hayvonlarning tasviri turli davrlar va janrlarda turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Hayvonlar orqali inson fe‘l-atvori, ijtimoiy hayot va axloqiy qadriyatlar aks ettirilgan. Garchi adabiy animalistik janr o‘ziga xos tarixga va mustahkam an‘anaga ega bo‘lsa-da, adabiyot nazariyasida bu atama ko‘pincha maxsus tushuncha sifatida qo‘llanilmaydi. Hayvonlar haqidagi adabiyotning ildizlari qadimgi folklor, mif va ertaklarga borib taqaladi. Masallarda, afsonalarda va epik dostonlarda hayvonlar insoniy xarakterlar va g‘oyalarni aks ettiruvchi obraz sifatida xizmat qilgan. "Animalistik janr" termini asosan san'atda (haykaltaroshlik, tasviriy san'at) kengroq ishlatiladi. Adabiyotda esa bu atama tizimli ravishda nashrlar va ilmiy ishlarda foydalanilmagan, lekin uning mazmuni ko‘plab asarlarda namoyon bo‘lgan. Animalistik janrda hayvonlar qahramon sifatida tasvirlanadi va ular ko‘pincha ramziy yoki allegorik ma'noga ega bo‘ladi. Hayvonlarning tabiatini tasvirlash bilan birga, asarlar insoniy fazilatlar, muammolar va munosabatlarni aks ettiradi.

Animalistik janr – bu badiiy adabiyot, tasviriy san’at va ijodning turli sohalarida hayvonlar hayotini, ularning tabiiy muhiti, xulq-atvorlari va insonlar bilan munosabatlarini tasvirlashga ixtisoslashgan yo‘nalishdir. Bu janr nafaqat hayvonot faoliyatini tasvirlash, balki ular orqali insonning o‘zi haqidagi fikrlarini, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatni ochib berishga ham qaratilgan. Badiiy matnlarda keltirilgan hayvonlar realistik yoki ramziy tarzda tasvirlanadi, har bir hayvon muayyan ramziy ma’nolarni tashiydi, masalan, sher – kuch va hukmronlik, quyon – soda va qo‘rqoqlik, bulbul – oshiqlik, kabutar – tinchlik, tulki – ayyorlik va munofiqlik, ayiq – go‘l va laqmalik, bo‘ri – qonxo‘rlik, chumchuq – chaqimchilik kabi ramzlarni o‘zida mujassamlaydi.

Aslida inson va hayvonlarni uzoq evolyutsion taraqqiyot birlashtirib turadi. Hayot paydo bo‘lgandan buyon hayvonlar inson hayotining ajralmas bo‘lagi bo‘lgan, mushkulini oson qilib, qiyinchiliklarni yengib o‘tishda yaqindan yordam bergan. Shu tufayli ham inson qo‘li bilan yaratilgan ko‘plab ijod mahsullarida hayvon tasvirini ko‘rish mumkin; qoyatoshlarda, sopol buyumlarda, haykaltaroshlik namunalari va arxitekturada, hattoki badiiy adabiyotda ham hayvon tasvirlarining o‘ziga xos o‘rni bor.

Asosiy qism. Turli xalqlarning animalistik adabiyotida hayvon obrazlari o‘ziga xos madaniy va lisoniy xususiyatlarga ega. Bu obrazlar xalqning tarixiy rivojlanishi, dunyoqarashi va madaniy an’analariga qarab shakllangan. Hayvonlarning tasviri adabiyotda turli janr va yo‘nalishlar orqali namoyon bo‘lib, ular maxsus yaratilish tamoyillariga asoslanadi. Animalistik obrazlar va ularning lisoniy xususiyatlari: a) madaniy xoslik – har bir xalqning hayvonlarga bo‘lgan qarashi uning e’tiqodlari (totemistik yondashuvi), afsonalari va xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq; b) lisoniy vositalar – hayvonlar obrazini yaratishda metafora, personifikatsiya, ramz va simvolika kabi badiiy uslublar keng qo‘llaniladi. Masalan, turkiy xalqlar adabiyotida ot ijobiy va epik obraz sifatida talqin qilinadi, uning tasvirida she’riy vositalar ko‘p uchraydi; d) obrazlarning universal va milliy xususiyatlari – ba’zi hayvon obrazlari universal bo‘lib, turli xalqlar adabiyotida bir xil ma’noni bildiradi (qarg‘a – donolik, bo‘ri – yirtqichlik). Ammo ayrim hayvonlar ma’nosi milliy va

tarixiy kontekstga qarab o'zgaradi. Masalan, Hind adabiyotida sigir muqaddas hayvon bo'lib, sharaflanadi, lekin boshqa madaniyatlarda bu ramziy ma'no unchalik ahamiyatga ega emas.

Hayvonlar ramziy va allegorik ma'nolar bilan boyitilib, milliy xususiyatlarga ega bo'lgan badiiy janr va yo'nalishlarni shakllantiradi. Ushbu obrazlar insoniyat tarixiy va madaniy taraqqiyotining o'ziga xos yodgorligi sifatida qadrlanadi. "Turkiy xalqlar og'zaki ijodida ot totemiga ham alohida ahamiyat berilgan. Arxeologik qazishmalar davrida yarmi ot va yarmi odam shaklidagi tasviriy asarlarning topilishi ham otga e'tiqodning qadimiy ramzidir. "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlarda G'iro't, "Alpomish"da Boychibor, qirg'iz eposi "Manas"da Oqula, oltoy turkiylarining eposi "Maaday Qora"da Karish Quloq kabi otlar obraziga katta e'tibor berilishi totemistik qarashlar natijasidir". (1)

Turkiy xalqlarning madaniy merosida muhim o'rin tutgan manbalardan biri "Baytarnoma"dir. Bu yozma asarlarda asosan ot va uning hayotdagi ahamiyati, otni parvarishlash, rang-tusiga ko'ra zotini aniqlash, ot boqish va tarbiyalash usullari, otga xos kasalliklar va ularni davolash yo'llari, shuningdek, ot tanlash qoidalari kabi mavzular atroflicha bayon etilgan. Bu asarlar turkiy xalqlar madaniyatida otga bo'lgan e'tibor va uning turmushdagi o'rni haqida yorqin tasavvur beradi.

Har bir xalqning folklorida ma'lum bir hayvonlar mavjud. Hayvonlarning turi esa xalqlarning mashg'uloti, geografik joylashuvi, madaniyati, dunyoqarashi, an'ana va urf-odatlar bilan bog'liq. O'zbek xalq og'zaki ijodida, dostonlarida azaldan ot, tuya, yirik shoxli qoramol, qo'y-qo'zilar ko'proq kuylangan. Ular boylik, to'qlik va xotirjamlik ramzi hisoblangan. Badiiy adabiyotdagi hayvonlar tasviri o'quvchiga obrazli-emotsional ta'sir ko'rsatish usuli hisoblanadi. Hayvonlar tasvirlangan asarlar mazmuni yuksak emotsionalligi bilan ajralib turadi. Insonlar hayotini hayvonlar obrazlari orqali tasvirlash badiiy adabiyotdagi animalistik janrning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimiz kabi turkiy xalqlar hayotida tulporlar, ya'ni otlar o'ziga xos qahramon jonivor hisoblanadi. U bilan bog'liq adabiyotlarning deyarli barchasida otlar ijobiylik kasb etadi.

Badiiy adabiyotlarda ot obrazi va tulpor tasviri nafaqat epik janrlar, balki folklor va zamonaviy adabiyotda ham o'ziga xos ramziy va estetik ahamiyatga ega. Tulporlar ko'plab xalqlarning adabiy merosida qudrat, erkinlik, sodiqlik va ezgulik ramzi sifatida tasvirlangan. Ular qahramonlik eposlarida qahramonlar bilan birga harakat qilib, ularning so'zsiz sheriklari va yordamchilari bo'lib xizmat qiladi. O'zbek xalq og'zaki ijodining boy merosida ot timsoli nafaqat ulug'vor hayvonning jismoniy xususiyatlarini ifodalash, balki chuqur madaniy va ramziy ma'nolarni o'zida mujassam etgan kuchli obraz sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek an'anaviy dostonchiligida, ayniqsa, "G'o'ro'g'li" dostonida otning ulug'lanishi va unga bo'lgan hurmatning yorqin namunasini ko'rish mumkin. Bu doston otni inson hayotining muhim qismi, sadoqat va qudrat ramzi sifatida tasvirlaydi hamda xalqning otga bo'lgan chuqur ehtiromini aks ettiradi.

"Dostonlarda ot juda muhim o'rin egallaydi. U qahramonning muvaffaqiyatga erishuvi yo'lida xizmat qilib, g'oyat mushkul vazifalarni bajaradi, qahramonga katta yordam beradi. Qahramon otga ega bo'lganligi tufayli istagiga erishadi. Shu narsa xarakterliki, epik ot qatnashmagan bironta qahramonlik dostonini topish qiyin. Ot qahramonning safari va kurashlarida doimiy yo'ldoshi, ishonchli qo'ldoshi va yaqin do'stidir".(2)

"Qadimiy turklarda Tangri uchun eng muqaddas qurbonlik bo'lgan ot va qo'chqorning suyaklari to'plab yoqilar, bosh suyaklari esa poliz, bog'larga nazarlik qilib tikilardi. Bu odat hanuzgacha davom etib kelayotganligi ma'lum. Bunday qurbonlikning hurmatiga, qurbonlik go'shti mayda bo'laklarga bo'linmay, katta-katta parcha holida pishirilgan yoki yo'qsillarga tarqatilgan. Otlarni "muqaddas daraxtlar" uchun qurbonlik qilib, qonini shu daraxtning ostiga to'kish, kalla suyagini va tuzlangan terisini tikib qo'yish ham turkiylarga xos qadimiy odatlardan hisoblangan. Qadimiy turkiylar otning narigi dunyoda ham egasiga xizmat qilishiga ishonishgan. Bu mifik tushuncha esa otning egasi bilan birga ko'mish odatini vujudga keltirgan."(3)

Antik davr yozuvchisi Homerning "Iliada" dostonida tasvirlangan Troya oti harbiy hiyla maqsadida ishlatilganligi ayon bo'ladi. Uyg'onish

davri ingliz adabiyotida, ayniqsa, Uilyam Shekspirning sonetlari va pyesalarida arg‘umoq obrazlari yaratildi. Shoir sonetlarida ular olovdan yaratilgan tulpor sifatida tasvirlanadi, “Genrix V” pyesasida esa o‘sha davr ingliz jamiyatidagi eng qimmatbaho sovg‘a sifatida otning ahamiyati ta’kidlanadi.

Shunday qilib, ingliz adabiyotida yaratilgan ot obrazining chuqur ildizlari va boy tarixiy konteksti mavjud. (4) Rus folklori namunalarida xalq qahramoni Ilya Murometsning sehrli oti Barushka-Matushka, Aleksandr Makedonskiyning oti Busephalus yoki Buchephalas nomlari bilan mashhur bo‘lib, ular nasl-nasabli, kuch-qudratga ega, ziyrak va sadoqatli ekanliklari alohida qayd etilgan.

Hayvonlar orasida ot, albatta, adabiyotda ham, san’atda ham eng ko‘p uchraydigan jonzot hisoblanadi. Yozuvchilar va tarixchilarning ta’kidlashicha, tabiatda tashqi ko‘rinishi jihatidan otdan go‘zal jonzot yo‘q. Ot doimo inson bilan yonma-yon yurib, uning yaxshi va yomon kunlaridagi sodiq hamrohi bo‘lib qolgan. Insoniyat birinchi bo‘lib qo‘lga o‘rgatgan hayvon ham otdir. Insonlar otlar bilan bog‘liq totemik e‘tiqodlarga amal qilib, ularni adabiyotda, tarixda, san’atda ko‘klarga ko‘tarib, yodgorliklar o‘rnatgan, rasmlarini chizgan hamda ularga bag‘ishlab she’rlar, qo‘shiqlar yaratgan. (5) Bu obrazni antik va mantiqiy mifologik asotirlar, afsonalar, xalq qo‘shiqlari va ertaklarda uchratish mumkin, bugungi kunda esa badiiy asarlarda ham davom etmoqda.

Ushbu obrazning genetikasi, asosan, xalq og‘zaki ijodi namunalariga borib tutashadi. Xususan, qadimgi mifologik qarashlar tizimida ot totem sifatida qabul qilingan. Shuningdek, bu e‘tiqodlar ertak, doston va maqollarga ham ta’sir ko‘rsatgan va ot, ushbu janrlardagi asarlarda insonning eng yaqin do‘sti, ham tashqi, ham ichki go‘zallikka ega obraz, erk va kuch-qudrat timsoli sifatida talqin etilgan. Xususan, folklordagi mashhur G‘irko‘k (“Go‘ro‘g‘li”), Boychibor, Ko‘kdunan (“Alpomish”), Jiyrongush (“Ravshan”) kabi otlar millat timsoliga aylangan, bu an’anaviy obrazning ildizlari mustahkamligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Ot obrazi genezisi va uning badiiy adabiyotdagi tadrijiyligi masalasi, o‘zbek folklori va mumtoz adabiyotdagi ifodasi hamda tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: shijoat va botirlik timsoli

bo'lgan ot tasviri dastlab qoyatoshlarda, keyinchalik qo'l mehnati va hunarmandchilik buyumlarida aks eta boshlagan bo'lsa, keyinchalik xalq og'zaki ijodi, ayniqsa, matal va maqollarda, afsona va asotirlarda, doston va ertaklarda obraz sifatida gavdalana boshladi.(6) Hattoki muqaddas Qur'oni Karimdagi "Anfol" surasida otlar kofirlardan himoyada bo'lishda asosiy yordamchilar sifatida berilgan. Nosiriddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asarida otlarning go'zalligiga mahliyo bo'lib, bir zumga farzini unutgan va gunohini Alloh yo'lida qurbon qilib yuborgan Sulaymon payg'ambar haqida hikoya ham fikrimizni go'zal dalillaydi.(7) O'zbek mumtoz adabiyotida, ayniqsa, **Alisher Navoiy**ning asarlarida otlar ramziy ma'nolarda, inson ruhiyatini, holatini va uning ichki dunyosini tasvirlashda muhim o'rin tutadi. **"Farhod va Shirin"** va **"Sab'ai Sayyor"** dostonlarida ot obrazlarini turlicha yondashuvlar bilan yaratadi: bir tomondan, otning go'zalligi va kuchi qahramonning ichki dunyosini ifodalasa, ikkinchi tomondan, ot insonning ruhiy holatini yaxshilashga, umidini tiklashga yordam beruvchi ramz sifatida ishlatiladi. Navoiy asarlarida ot, faqatgina ulov yoki ko'rkam jonivor emas, balki insonning ruhiy jihatdan o'sishini, o'zini anglashni va hayotni sevishni o'rgatadigan, muhabbat, sadoqat va do'stlikni aks ettiruvchi kuchli tamsil sifatida talqin etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zarifov H.T. O'zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari bo'yicha tekshirishlar. Jangovar otning qadimiy asoslariga doir // O'zbek xalq og'zaki ijodi bo'yicha tadqiqotlar. 4-kitob Po'ltan shoir. – Toshkent: Fan, 1967.
2. Devonu lug'otit turk. Indeks lug'at. – Toshkent: Fan, 1967.
3. Go'ro'g'lining tug'ilishi. Aytuvchi: Po'ltan shoir. – Toshkent, 1967.
4. Rahmonov V. O'zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug'at. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.

5. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12 jild. – Toshkent, 2000–2006.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2023.
7. Tilavov Abdumurod. Ot obrazi: tarix, tahlil va talqin. Monografiya. – Toshkent: ”Sano-standart”, 2021.
8. Ochilova Nilufar. Ingilizzabon g‘arb va o‘zbek nasrida ot obrazi talqini, f.f.bo‘yicha f.d (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro, 2022.
9. Turdiyeva Y. Badiiy tasvir vositalarini qo‘llashda uslubning o‘rni. Xorazm ma‘mun akademiyasi axborotnomasi. – Xiva (ISSN – 2091 – 573 X) – 2023. №9/4 (106). – B. 121-125.
10. Jurayeva, N. (2023). Mumtoz she‘riyatda Bobur g‘azallarining poetik xususiyatlari. *Alfraganus*, (1 (1)), 30-34.
11. Abdullayeva, O. O. Q., & Abdullayeva, M. O. Q. (2021). QALBGA YAQIN SATRLAR. *Scientific progress*, 2(3), 138-142.
12. Xujayev, M. I. (2018). The coverage of the problem of nationality and its role on the present day in Ahmad Zaki Valadi's work. *Мировая наука*, (6 (15)), 61-63.
13. Хужаев, М. И. (2018). Ахмад Заки Валидийнинг диний-фалсафий меросининг илдизлари. In *Инновационные подходы в современной науке* (pp. 177-182).
14. Khujaev, M. (2024). Ahmed Zaki: on the ideas of the philosophy of history. *Экономика и социум*, (1 (116)), 235-239.
15. Khujaev, M. I. (2024). The usage of djadids’ ideas in modern education process. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(26), 565-575.
16. Xujaev, M. I. (2020). EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 5| Issue: 8| August 2020- Peer Reviewed Journal.
17. Xujaev, M. I. (2015). Некоторые особенности этических взглядов Ахмет-Заки Валидова. *Credo new*, (2-2), 3.

Internet saytlari:

- <https://uz.dailyhoroscopeastros.com/horse-symbolism-meaning>
- <http://agreenhorse.blogspot.com>
- <https://researchgate.net>
- <https://binicilikokulu.com/atlar-hakkinda-bilgiler>